

## 2019 yilning yanvar-mart oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi

### RAQAMLAR:

<b>2899,7 mlrd.so'm</b> sanoat ishlab chiqarish hajmi	<b>95,7%</b> sanoat ishlab chiqarish indeksi
<b>414,7 mlrd.so'm</b> iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi	<b>108,5%</b> o'sish sur'ati
<b>16,9%</b> sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi	<b>14,3%</b> istemol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar-mart oylarida respublika korxonalarini tomonidan 2899,7 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 95,7%. ni tashkil etdi.

Mahsulotlar ishlab chiqarishning eng katta hajmi ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lib, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 87,2% tashkil etadi.

Sanoat ishlab chiqarishbing o'sishiga elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini ham munosib hissa qo'shdi, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 8,4% tashkil etti.

### **2019 yilning yanvar-mart oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi**

**87,2%**

Qayta ishlash sanoati

**8,4%**

Elektr gaz, bug' bilan  
ta'minlash va havoni  
konditsiyalash

**3,4%**

Tog'-kon sanoati va  
ochiq konlarni  
ishlash

**1,0%**

Suv bilan ta'minlash,  
kanalizatsiya tizimi,  
chiqindilarni utilizatsiya  
qilish

### **Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.**

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2019 yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 97,8 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,4% ni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'yicha ohoktosh qazib olish hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 0,4% ga oshganligini kuzatish mumkun va gaz kondensati 5,1% ga, tabiiy gaz 2,6% ga pa'sayishi kuzatildi.



#### **Yanvar-mart oylarida tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2019 yilda ishlab chiqarilgan	Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
41347,0	<b>Ohoktosh, t</b> 	41178,0	100,4 ↑
42,13	<b>Gaz kondensati, ming t.</b> 	44,39	94,9 ↓
1568,1	<b>Tabiiy gaz, mln.kub.m</b> 	1609,5	97,4 ↓


### ***Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).***



2019 yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2528,6 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 87,2% ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,4% (2018-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 0,02%) ni o'rta-yuqori texnologiyali 69,8% (74,0), o'rta-quyi texnologiyali 4,5% (3,08%), va quyi texnologiyali 25,3 % (22,9%)tashkil etdi.

#### ***2019 yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi býoicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi***



O'z navbatida ishlab chiqaradigan sanoatda o'tgan yilning mos davriga nisbatan , yumshoq bug'doy uni 5,0% ga, bug'doy noni 15,1% ga, yirik shoxli qoramollar uchin

tayyor ozuqa 25,1% ga va aroq 3,1% ga oshganligini va paxta tolasi, tozalangan guruch, makaron mahsuloti o'tgan yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada pasayganligini kuzatish mumkin.

***Yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish***

2019 yilda ishlab chiqarilgan	ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlar	2018 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
<b><i>Paxta tolasi, t</i></b>			
18103,0		23295,3	77,7 
<b><i>O'simlik yog'i (tozalangan), t</i></b>			
5106,2		5585,7	91,4 
<b><i>Tozalangan guruch, t</i></b>			
654,9		1461,1	44,8 
<b><i>Yumshoq bug'doy uni, t</i></b>			
19828,75		18876,8	105,0 
<b><i>Bug'doy noni, t</i></b>			
633,7		550,8	115,1 
<b><i>Makaron mahsuloti, t</i></b>			
487,1		755,4	64,5 
<b><i>Yirik shoxli qoramollar uchin tayyor ozuqa, t</i></b>			
13759,4		10995,0	125,1 

		<b>Aroq, ming.l. 100% spirit</b>		
1063,4			1031,8	103,1
46,3			49,1	94,3
89693,3			102750,8	87,3
23775,7			25315,3	93,9

***Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash  
va havoni konditsiyalash.***

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 245,4 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining(8,4% ni) tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-mart oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10,1% ga, issiqlik energiyasini ishlab chiqarish 1,9% ga kamayishi kuzatildi.



## **Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.**




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 27,9 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,0% ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyoni 81,3% ga pasayganligin, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlarning 38,6% ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarning 24,2% ga oshganligi kuzatildi.

### **Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.**


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 414,7 mlrd.so'mni o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 8,5% ni tashkil etti va jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 14,3% ni tashkil etdi

### **2019 yilning yanvar-mart oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi (mlrd.so'mda)**



2018 yilning yanvar-mart oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 61,3% dan 2019 yilning yanvar-mart oylarida 61,6% ga oshishi kuzatilmoqda.

***Yirik va kichik biznes sub'ektlari tomonidan iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi, %***




***Chet el investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi***

Hisobat davrida xoriji investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1648,2 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobat davrida xoriji investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining umumi ishlab chiqarishdagi ulushi 56,8% tashkil etti.

***Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining  
sanoatning umumiy hajmdagi ulishi, %***




***Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi***

Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Nukus shahri (respublika sanoat ishlab chiqarish hajmning 67,3% dan ulushini), Taxiatosh (7,3%), Xo'jayli (3,8%), Mo'ynoq (3,0%), Amudaryo (2,6%) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Shu bilan birga eng kam ulushi Taxtako'pir (0,2 %), Shumanay (0,3 %), Nukus (0,4 %) va Chimboy (1,3 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shuningdek, iste'mol tovarlari hajminig eng katta qismi Nukus shahar (jami iste'mol tovarlari hajmining 32,6%), Xo'jayli (12,5%), Beruniy (9,9%), To'rtko'l (7,4%), Ellikqal'a (6,3%), Qo'ng'iroq (5,9%), Amudaryo (5,6%) tumanlarida ishlab chiqarildi.


**2019 yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha  
sanoat ishlab chiqarish va xalq istemol mollari ishlab chiqarish (% da)**



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi tahlili Nukus shahrida (6179,7 ming so'm), Taxiatosh (2903,9 ming.so'm), Mo'ynoq (2766,0 ming.so'm) tumanlarida o'rtacha respublika darajasi ko'rsatkichidan (1545,8 ming.so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Respublika bo'yicha aholi jon boshiga o'rtacha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 225,1 ming.so'm bulgan holda Nukus shahrida 428,4 ming.so'mni, Xo'jayli tumanida 425,4 ming so'mni, Taxiatosh tumanida 300,4 ming.so'mni tashkil qildi.


***Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va  
istemol tovarlar ishlab chiqarishi, (ming.so'mda)  
(2019 yil yanvar-mart oylari ushin)***



***Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.***

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshishini ta'minladi, va kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 16,9% tashkil etmoqda.

### **2019 yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %**



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Shumanay (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Nukus (99,9%), Taxtako'pir va Qorao'zak (99,99%), Ellikqal'a (99,6%) va Chimboy (93,6%) tumanlarida kuzatildi.



Shu bilan birga, eng kichkina ulush Nukus shahrida (6,2%), Mo'ynoq (8,6%), Taxiatosh (11,5%) va Qonliko'l (15,8%) tumanlarida kuzatildi.

**2019 yilning yanvar-mart oylarida tayyor mahsulotlar, butlovchi qisimlar va materiallar ishlab chigarishni mahalliylastirish.**

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qisimlar va materiyallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi respublika sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning rivojlanishiga o'z tasirini kursatti, mazkur dastur doyirasida 997,7 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lib 83,3 mln. AQSH dollori mig'dorida mahalliylashtirilgan mahsulotlar eksport qilindi va 242 ta yangi ish o'rni yaratildi.

Mahalliylashtirilqan mahsulotlar hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 9,8 foyizga kamayishkuzatildi.

**2019 yilning yanvar-mart oylarida tayyor mahsulotlar, butlovchi qisimlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylastirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari**




2019 yilning yanvar-mart oylarida mahalliylashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlar umumiy hajmining 97,9 foizi Nukus sh. (976,3mild. so'm) korxonalariga to'g'ri keladi.

***Foaliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalar.***

Bugungi kunda respublikada 2012 sanoat korxonalari foaliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ularning 244 tasin yangi sanoat korxonalari tashkil etadi. Yangi tashkil etilgan korxonalarning qariyib 50,4% Nukus shahri, To'rtko'l, Mo'ynoq, Amudaryo va Ellikqal'a tumanlariga to'g'ri keladi.

**2019 yil 1 aprel holatiga foaliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalar soni, birlik**



**Q.R Statistika boshqarmasi  
sanoat statistikasi bo'limi  
Aloqa telefoni: (0371) 230-82-09**